



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI  
O'ZBEKISTON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI  
151800, O'zbekiston tumani, Ziyokor ko'chasi, tel.: (998 73) 539 15 38,  
[www.farg'ona.adliya.uz](http://www.farg'ona.adliya.uz), el.pochta: [uzbekiston.t-yurmarkaz@adliya.uz](mailto:uzbekiston.t-yurmarkaz@adliya.uz)

2022 yil 04 fevral

Yaypan shahri

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING  
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**1. Loyihaning turi :** Shartnoma.

**2. Loyihaning nomi:** Budgetdan mablag' oluvchi muassasalarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash haqida.

**3. Loyiha bo'yicha ma'lumotlar:**

O'zbekiston tuman Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi va "FARG'ONA DORI-DARMON" aksiyadorlik jamiyati o'rtaida "Budgetdan mablag' oluvchi muassasalarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash haqida"gi, 239.633.64 so'm baholangan shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o'rganib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentabrdagi PQ-3953-sodan qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 18-bandida, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha dori vositalari va tibbiyotda qo'llaniladigan buyumlar sotib olish uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

**XULOSA**

O'zbekiston tuman Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi tomonidan taqdim etilgan mazkur shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi, yuqoridagilarga asosan mazkur shartnoma loyihalarini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq deb hisoblanadi.

**O'zbekiston tuman YXKM  
bosh yuriskonsul'ti**



**B.Turg'unov**